Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlikda moliyalashtirilayotgan hamda Konrad Adenauer jamg‘armasi va “Yuksalish” harakati tomonidan birgalikda amalga oshirilayotgan “O'zbekistonda inklyuziv jamoatchilik taraqqiyoti uchun fuqarolik jamiyati imkoniyatlarini kengaytirish” loyihasi doirasida Farg‘ona viloyatida tashkil etiladigan 3 kunlik tadbirlarni o‘tkazish bo‘yicha

TEXNIK TALABLAR

1. Umumiy ma’lumot

Forum “ **O'zbekistonda inklyuziv jamoatchilik taraqqiyoti uchun fuqarolik jamiyati imkoniyatlarini kengaytirish**” loyihasi doirasida tashkil etilmoqda. Tadbirda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Qashqadaryo va Farg‘ona viloyatlaridan jami 62 nafar ishtirokchi, 16 nafar loyiha xodimlari va ekspertlar, shuningdek, mahalliy hokimiyat vakillari ishtirok etadi.

2. Vaqt va joy

Trening sanasi: 2026-yil 11-fevraldan 13-fevralgacha.

Davomiyligi: 3 kun.

Ekspertlar va loyiha jamoasining kelish va ketish vaqti: kelish — 2026-yil 10-fevral (kechqurun), ketish — 2026-yil 13-fevral (kechqurun).

Joy: Farg‘ona shahridagi 3 yoki 4 yulduzli mehmonxona (60-70 nafar ishtirokchilarni bir vaqtning o‘zida sig‘dira oladigan konferens-zaliga ega bo‘lgan).

3. Ishtirokchilar

Ishtirokchilar soni: 62 nafar

Ekspertlar soni: 6 nafar

Tashkilotchilar: 10 nafar

Barcha ishtirokchilarning umumiy soni: 59 kishi

4. Joylashtirish va shart-sharoitlar

- 2 nafar ekspert va loyihaning 10 nafar xodimi uchun xonalar single room/bir kishilik xonalar (*9 nafari uchun 3 kecha kech joylashish va kech chiqib ketish, 1 nafari uchun 1 kecha*)
- 22 nafar ishtirokchilar uchun 2 kishilik joylashtirish (*kech joylashish 3 kecha*)

- 15 nafar ishtirokchilar uchun 2 kishilik joylashtirish (2 kecha)
- Har bir xonada quyidagilar bo‘lishi shart: konditsioner, dush, Wi-Fi, fen, ichimlik suvi va gigiyenik vositalar.
- Har kuni tozalikni ta’minlash (yig‘ishtirish).

5. Ovqatlanish

Barcha ishtirokchilar uchun:

Tushlik – mehmonxonada 388 portsiyada jami 7 mahal tushlik va kechki ovqat (porsiyali menyu), 3 xil taomdan iborat (salat, asosiy taom, desert/ichimlik);

Kofe-breyk – 397 nafar ishtirokchi uchun birinchi kuni welcome coffe va jami 4 mahal kofe breyk (choy, kofe, suv, pechenye, mevalar, yengil gazaklar).

6. Konferens-zal va jihozlar

- 1 ta keng konferens-zal (bir vaqtning o‘zida 60-70 ishtirokchini sig‘dira oladigan). Ishtirokchilar orasida nogironligi bo‘lgan shaxslar bo‘lishi mumkinligi sababli, binoning 1-qavatida joylashgan zalga alohida ustunlik beriladi.
- Spikerlar taqdimoti uchun proyektor yoki ekran.
- Noutbuk (1 dona).
- Ovoz tizimi va mikrofonlar (2 ta qo‘l mikrofoni va 1 ta garnitura; ishtirokchilar uchun stol mikrofonlari bo‘lishi ma’qullanadi).
- Flipchart, markerlar va qog‘oz.
- Wi-Fi internet (barqaror).
- Konditsioner va har bir qatorda elektr rozetkalari.

8. Qo‘shimcha talablar

- Mehmonxona yoki tadbir o‘tkaziladigan joy markaziy qismda, xavfsiz va oson boriladigan hududda joylashgan bo‘lishi kerak.
- Barcha xizmatlar uchun hisob-fakturalar (invoice) taqdim etilishi shart.
- Yetkazib beruvchi tashkilot xizmatlarning to‘liq logistikasi va tayyorgarligini ta’minlashi kerak.

9. Moliyaviy taklif formati

Taklifda quyidagilar alohida ko‘rsatilishi kerak:

- Yashash va ovqatlanish narxi (1 kishi/1 kun konferens paket);
- Konferens-zal ijarasi (1 kun, ushbu mablag‘ konferens paket ichiga kiritilishi mumkin);
- Kofe-breyklar narxi (ushbu mablag‘ konferens paket ichiga kiritilishi mumkin).

Tashkilot QQS to‘lovchi bo‘lgan taqdirda barcha narxlar QQS (НДС)ni inobatga olgan holda ko‘rsatilishi shart.